



TAKOFUL SUG'URTA BOZORINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Alimov Sherzod

Termiz davlar universiteti

ORCID: 0009-0003-8669-1833

alimovsherzod0074@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda takoful sug'urta fondlarini tashkil etish, joriy etish, rivojlantirish va islom moliya bozorining mohiyati, uning zamonaviy islomiy moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish, hamda takoful sug'urta bozorining ishlash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish, jahon sug'urta bozorida takoful sug'urta fondlarining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarni yoritib berish, sug'urta bozorida takoful sug'urta fondlarining rivojlanishi va zamonaviy holatini baholash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: takoful, takoful fondlari, takoful tizimi, takoful sug'urta bozori, islom moliyasi, islom sug'urtasi, ribo, g'arar, maysir, sug'urta jamg'armasi, sug'urta operatori, foyda taqsimoti.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЫНКА ТАКАФУЛЬНОГО СТРАХОВАНИЯ

Алимов Шерзод

Термезский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы создания, внедрения и развития фондов такафул-страхования в Узбекистане, сущность исламского финансового рынка, изучение научных подходов к его современным исламским финансовым инструментам, а также научные основы механизма и типологии рынка такафул-страхования; разъясняются научно-теоретические взгляды на содержание фондов такафул-страхования как экономической категории и их роль на мировом страховом рынке, а также оценивается развитие и современное состояние фондов такафул-страхования на страховом рынке.

Ключевые слова: такафул, такафул-фонды, такафул-система, рынок такафул-страхования, исламские финансы, исламское страхование, риба, гарар, майсир, страховой фонд, страховой оператор, участие в прибылях.

REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK OF THE TAKAFUL INSURANCE MARKET

Alimov Sherzod

Termez State University

Abstract. The article covers the issues of the establishment, introduction, development of takaful insurance funds in Uzbekistan and the essence of the Islamic financial market, the study of scientific approaches to its modern Islamic financial instruments, as well as the scientific foundations of the mechanism and typology of the takaful insurance market; elucidates scientific and theoretical views on the content of takaful insurance funds as an economic category and its role in the global insurance market, and assesses the development and modern state of takaful insurance funds in the insurance market.

Keywords: takaful, takaful funds, takaful system, takaful insurance market, Islamic finance, Islamic insurance, riba, gharar, maysir, insurance fund, insurance operator, profit sharing.

Kirish.

Hozirgi kunga kelib rivojlangan davlatlar xo'jaligida shakllantirilayotgan milliy daromadning katta qismini xizmat ko'rsatish sohasiga jumladan sug'urta xizmatlari hissasini tashkil etmoqda. Moliya bozorlarida sug'urta kompaniyalari o'zlarining mablag'lari bilan ishtirok etsa, jahon tovar va xizmatlar bozorida o'z sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2020-yilning 29-dekabr kuni davlatimiz rahbari o'zining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida, "O'zbekistonda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", - deya e'tirof etdi (sputniknews.uz, 2020).

Bugungi kunda, takoful sug'urta bozori ko'pchilik musulmon mamlakatlarida asosiy sug'urta shaklidir. Ko'plab qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlarda takoful sug'urta fondiga talabning o'sishi takoful sug'urtasining kengayishi uchun muhim omil bo'lmoqda. Aksariyat musulmonlar yashaydigan bir qancha davlatlarda o'rta sinf qatlami daromadlari o'sib bormoqda.

Insonlarning moddiy ahvoli yaxshilanar ekan, ular o'z mol-mulki va farovonligini himoya qilish uchun takoful sug'urta fondlaridan foydalanishga ko'proq qiziqmoqdalar va bunday sharoitda fuqarolarga "Takoful sug'urta fondlari" islom shariatga muvofiq tanlovni beradi. Investitsiya foydasining ikkala ishtirokchi o'rtasida taqsimlanishi takoful sug'urta bozorini rivojlantirmoqda.

Sug'urta xizmatlar bozori - bu muhim ijtimoiy, iqtisodiy omil bo'lib, tovarlar savdosi, risk, hayot, jon, javobgarlik va mulklarni sug'urtaviy himoyasining talab va taklifi shaklida namoyon bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Sug'urta xizmatlar bozorining asosiy xususiyati, kutilmagan ko'ngilsiz voqealar ro'y berganda ishlab chiqaruvchini yoki tadbirkorni moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlash va ko'rilgan zararlarni qoplash jarayonidir. Bu jarayondan tashqari, sug'urta xizmatlar bozori o'zining iste'molchilariga moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi fond vazifasini ham bajaradi.

Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari va o'zaro sug'urta ko'rinishida. Islomiy sug'urtalash asosi bo'lgan takofulni ko'rib chiqadigan bo'lsak, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin.

Sug'urta bozorining rivojlanishi sug'urta xizmatlarining jamiyatning turli ehtiyojlariga mos kelishi va bu ehtiyojlarni samarali qondirishga qodir sug'urtachilarning mavjudligiga bog'liq. Ushbu majburiyatni hal qilish uchun sug'urta bozorini diversifikatsiya qilishning jiddiy asoslari mavjud. Bu diversifikatsiyaga erishishning istiqbolli yo'llaridan biri bu islom shariati tamoyillari asosida boshqariladigan sug'urtaning o'ziga xos shakli bo'lgan Takofuldir.

Adabiyotlar sharhi.

Sugurta mamlakat moliya tizimining eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar shu jumladan yurtimizda malda bo'lib kelayotgan an'anaviy sigurta tizimi o'zida ribo (foiz), garar (noaniqlik), va maysir (qimor) elementlarinining mavjudligi musulmonlarning diniy aqidalariga to'g'ri kelmaydi.

Takaful so'zi arabcha "*Kafala*" (bir-biriga kafil bo'lish/kafolatlash) so'zidan olingan bo'lib, Qur'onning Moida surasi 2-oyatidagi "*Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qilingiz...*" degan ko'rsatmasiga asoslanadi.

Islomda sug'urtaning kelib chiqishini aniqlash qiyin. Takaful (islomiy sug'urta) tushunchasining tarixi juda qadimiy bo'lib, u bitta shaxs tomonidan "ixtiro qilingan" fan emas,

balki islom huquqi (fiqh) rivojlanishi natijasida shakllangan tizimdir. Biroq, bugungi kunda sug'urta shartnomasining xususiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, sug'urta operatsiyalari Muqaddas Payg'ambar Muhammad (SAV) davridan beri amal qilingan edi. Musulmon dunyosida sug'urta asta-sekin rivojlangan o'n to'qqizinchi asr Hanafiy yuristi Ibn Obidin (1784-1836) birinchi bo'lib sug'urtaning mazmuni, tushunchasini ilgari surgan.

Zamonaviy islom iqtisodchilari va huquqshunoslari (masalan, Siddiqi) sug'urta masalasini islom huquqi nuqtai nazaridan birinchi bo'lib tizimli tahlil qilgan olim sifatida Ibn Obidinni (Hanafiy mazhabi olimi) dengiz sug'urtasi (sukkara) tushunchasini tilga olib ("Radd al-Muxtar alal-Dur al-Muxtar" asari), uning huquqiy tabiatini muhokama qilgan. Bu islomiy adabiyotlarda sug'urta masalasining ilk jiddiy tahlillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy Takoful tushunchasini iqtisodiy model sifatida shakllantirishda 1970-yillardagi islomiy ulamolar kengashlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Islom Hamkorlik Tashkiloti (OIC) huzuridagi Xalqaro Islom Fiqhi Akademiyasi (Jidda) 1985-yilgi qarori bilan tijorat sug'urtasini taqiqlab, uning o'rniga o'zaro yordamga asoslangan Takoful modelini taklif qilgan.

Takoful tushunchasini fang avayotga kiritgan birinchi muassasa, birinchi takoful sug'urta kompaniyasi 1979-yilda Sudanda tashkil etilgan "The Islamic Insurance Company of Sudan" hisoblanadi. Aynan shu davrdan boshlab takoful akademik darsliklarga mustaqil islomiy moliya yo'nalishi sifatida kiritila boshlandi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda islomiy manbalar va adabiyotlarning tahlil usullari qo'llanilib, takoful tushunchasining kelib chiqishi va rivojlanishi bosqichlari asosida umumiy tahlillar amalga oshirilgan. Mazkur tahlil jarayonida takoful sug'urta bozorining me'yoriy - huquqiy asosini chuqur o'rganish metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, takoful sug'urta bozorini samarali boshqarish, islom sug'urta xizmatlari sifatini oshirish, rivojlantirishda takoful sug'urta bozorining me'yoriy-huquqiy asoslari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va ko'rsatib o'tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sug'urta arab tilida "تأمين ta'min" deb yuritiladi. Ushbu atama yangi tushuncha bo'lib, sug'urtaning inglizcha istilohidagi muqobili "Insurance". inglizcha o'zdan olingan bo'lib, "security" so'zi ba'zi arab lahjalariga sug'urta ma'nosida kirib qolgan, vaqtlar o'tgan sayin, ushbu so'zni buzib talaffuz qilish bilan bizning diyorlarga kelganda sug'urta deb yuritila boshlangan.

Islom shariatiga muvofiq sug'urta - Takoful (الكفالة so'zi arab tilidagi kafala (" – kafallik", "bir-biriga kafolat berish" so'zidan olingan. O'z o'rnida, takoful jamoaviy ta'min yoki sug'urta deb ham qaraladi, lekin hamma jamoaviy sug'urtalar ham shariatga muvofiq kelavermaydi.

"Islom sug'urtasi" va "Takoful" tushunchalari bir-birining o'rnini bosa oladigan atama hisoblanadi. Biroq, har doim ham bu ikki so'z bir hil emas. Dastlab, "Islom sug'urtasi" tushunchasi dunyodagi birinchi islom sug'urta kompaniyasi - Islom sug'urta kompaniyasi (Sharika at-ta'amin al-islamiyya) tomonidan qo'llanilgan. "Islom sug'urtasi" mulk sug'urtasi turlariga nisbatan ishlatila boshlandi. 1984-yilda bu atama Malayziya Takaful qonunining qabul qilinishi va ushbu mamlakatda Islom sug'urtasining rivojlanishiga sababchi bo'ldi. "Takoful" tushunchasi keng ishlatiladi. Biroq, Islom sug'urtasining vatani bo'lgan Sudan davlatida qonun chiqaruvchi bu ikki tushunchani farqlashda davom etmoqdalar yani 2003-yilgi "Sug'urta va Takoful to'g'risida"gi qonunda Islomiy sug'urta tushuncha umumiy sug'urta turini, takoful esa hayot sug'urta turini bildiradi.

Islom sug'urtasi - bu o'zaro yordam, birdamlik va ko'mak tamoyillariga asoslangan bo'lib, benefitsiarlar (ya'ni yordam loyihasidan manfaat olishi mumkin bo'lgan tomonlar) duch

keladigan turli falokat va ko'ngilsiz holatlar, zararlar masalan, mol-mulkdan ayrilish yoki ularga zarar yetish kabi holatlarda moliyaviy yechimlardan biri hisoblanadi.

Sug'urta hizmatlari islom dinining ilk davrlarida mavjud bo'lmaganligi tufayli ko'pchilik olimlar tomonidan katta bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda. Ammo jamiyatning tinimsiz ravishda rivojlanishi va undagi kishilarning ehtiyojlari va faoliyatlarining o'zgarib borishi natijasida ularning ehtiyojlarini qondirish uchun sug'urta faoliyati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar fuqarolari hayotining ajralmas qismiga aylanib qoldi.

Musurmon mamlakatlarda islom dini jamiyatda yuzaga keladigan barcha masalalarga adolatli yechim beruvchi dastur bo'lgani sababli, islomda takoful/ta'min mahsuloti an'anaviy sug'urtaning o'rniga yechim sifatida taklif qilingan. Uning asosida o'zaro evazsiz moliyaviy yordam turishi hech kimga sir emas.

Takoful sug'urtasi ya'ni islom sug'urtasiga shar'iy dalillar sifatida quyidagi rivoyatni keltirishimiz mumkin, bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan: "Tuyamni bog'lab tavakkul (ya'ni Allohga tavakkal) qilaymi yoki qo'yib yuborib, so'ng tavakkul qilaymi?" deb so'raganida, u zot: "Uni bog'lagin-da, so'ng tavakkul qil!", deb aytganlar (*Imom at-Termiziy (2517)*) (Shu ma'nodagi hadisni Ibn Hibbon, Hokim va Quzo'iylar ham rivoyat qilishgan). Ya'ni insonda imkoniyat bor ekan, qo'ldan kelgancha sabablarini qilib, o'ziga yoki mol-mulkiga yetishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishga harakat qilishligiga urg'u berilgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, takoful, iqtisodiyotga an'anaviy tijoriy sug'urta turidan ko'ra foydaliroqdir.

An'anaviy tijoriy sug'urta o'z ichiga islomda ta'qiqlangan g'arar (noaniqlik, mavhumlik) va riboni oladi, chunki:

G'arar	Ribo
Sug'urta qildirgan shaxs sug'urta kompaniyasiga sug'urta uchun sug'urta mukofoti to'laydi, lekin evaziga real mol yoki xizmat emas, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta holatida unga yetgan talafotni qoplab berish va'dasini oladi	Sug'urta kompaniyalari turli shaxslardan sug'urta bo'yicha tushgan sug'urta mukofotlarini va pullarni tijorat banklariga depozitga qo'yib foiz olib ko'paytirishadi, bu esa ribo hisoblanadi

1-rasm. G'ara va ribo elementlari tavsifi


Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Islom dini asosiy din hisoblangan musurmon mamlakatlarda takoful sug'urta faoliyatidan foydalanish bir muncha sekinlik bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab sifatida sug'urta faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar na qur'onda, na hadisi sharifda aniq bir fatvoning mavjud emasligi hisoblanadi.

Takoful - o'zaro yordam va birgalikdagi mas'uliyat tamoyillariga asoslangan islom sug'urtasining hamkorlik tushunchasi. "Takoful" atamasi arabcha "kafala" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berish yoki g'amxo'rlik qilish degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha foyda olish va tavakkalchilikni o'tkazishga asoslangan an'anaviy sug'urtadan farqli o'laroq, Takaful o'zaro yordam tamoyiliga asoslanib ishlaydi, ishtirokchilar Islom qonunlariga (shariat) muvofiq, muhtoj paytlarda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash uchun umumiy fondga hissa qo'shadilar.

Takoful fondlari nafaqat sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qoplamalarini qoplash uchun, balki Islom sug'urta kompaniyasi a'zolarining sug'urta badallarini investitsiya qilishdan olgan foydasining bir qismini ham qoplash uchun sarflanadi.

Shu o'rinda shu ta'kidlab o'tish zarurki, quyidagi holatda niyat tushunchasi qonuniy emas, balki axloqiy va axloqiy majburiyat hisoblanadi. O'z xayriyalarini exson qilishni niyat qilmagan inson, agar qolgan majburiyatlar bajarilsa, ishtirokchi sifatida qatnashishi va takoful operatoridan hech qanday cheklovlarsiz sug'urta polislarini sotib olishlari mumkin bo'ladi.



2-rasm. Takoful sug'urtasining ahamiyati

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 2-rasmda shuni ko'rishimiz mumkinki, takoful sug'urta bozori shunchaki diniy ehtiyoj emas, balki mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi strategik vositalardan biridir. Uning asosiy maqsadi nafaqat moliyaviy himoya, balki jamiyat a'zolari o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlashdir. Takafulning eng katta ahamiyati - musulmonlar uchun o'z e'tiqodlariga zid kelmagan holda xatarlardan himoyalaniish imkonini berishidir.

Mamlakatda an'anaviy sug'urtadan diniy sabablarga ko'ra foydalanmaydigan aholi va tadbirkorlar qatlami mavjud. Takafulning joriy etilishi tadbirkorlarning "passiv" mablag'larini iqtisodiyotga olib kiradi, aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi va mustahkamlaydi, kichik va o'rta biznes vakillari uchun shariatga mos sug'urta xatarlarni boshqarish imkonini beradi.


Islom sug'urta kompaniyalari yig'ilgan sug'urta badallarini foizli depozitlarga qo'ya olmaydi. Shuning uchun ular mablag'larni real iqtisodiyotga yo'naltirishga majbur bo'lishadi. Masalan sukuk (islomiy obligatsiyalar) orqali ijtimoiy ob'ektlar yo'llar, ko'priklar va energiya ob'ektlari qurilishini moliyalashtirishga, ishlab chiqarishdagi halol standartlarga mos keladigan sanoat korxonalariga sarmoya kiritishlari mumkin. Ush jarayon yangi ish o'rinlari yaratilishiga va YaIM (Yalpi ichki mahsulot)ning o'sishiga bevosita xizmat qilishiga olib keladi.

Takoful sug'urta tizimida kapital jamg'arish - bu nafaqat kutilmagan xatarlardan himoyalaniish, balki mablag'larni shariat tamoyillari asosida ko'paytirish imkoniyatidir. Bu jarayon asosan Oilaviy takoful (Family Takaful) doirasida amalga oshiriladi va an'anaviy jamg'arib boriladigan sug'urtadan tubdan farq qiladi.

Kapitalingiz shunchaki turmaydi, balki Takoful sug'urta kompaniyasi tomonidan halol aktivlarga investitsiya qilinadi, yani siz sarmoyador (Rabb-ul-mal), kompaniya esa boshqaruvchi (Mudorib) bo'ladi. Hosil bo'lgan foyda oldindan kelishilgan foizlarda (masalan, 70/30) bo'lishiladi. Kompaniya sizning mablag'ingizni boshqargani uchun belgilangan haq (agentlik haqi) oladi, qolgan barcha investitsiya daromadi sizga tegishli bo'ladi.

Agar sug'urta muddati davomida ishtirokchi vafot etsa, uning oilasiga ham jamg'arilgan mablag'lar, hamda xayriya fondidan qo'shimcha yordam puli beriladiga sabab bo'ladi. Takoful fondlari orqali farzandlar ta'lim olishi, uy-joy sotib olishlari yoki haj safariga borish uchun maxsus jamg'armalar shakllantirishlari mumkin bo'ladi.

Yil yakunida ishtirokchilarning umumiy jamg'armasidan barcha sug'urta hodisalaridan ko'rilgan zararlar, sug'urta qoplamalari va operatsion xarajatlar chegirib qolinib, ortiqcha mablag' qolsa, u foyda deb ataladi, hamda bu foyda ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda qayta taqsimlanadi. Natijada sug'urta qildiruvchi o'zi to'lagan badalning bir qismini naqd pul yoki keyingi yil uchun chegirma shaklida qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.



3-rasm. Takoful fondi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Takoful sug'urta bozorida moddiy foydadan tashqari, ishtirokchilar quyidagi nomoddiy manfaatlarga ham ega bo'lishadi. Birinchidan xotirjamlikka - mablag'lar sudxorlikdan xoli ekanligi. Siz to'lagan sug'urta badallari o'ziz biror bir sug'urta hodisasiga uchrasangiz boshqa bir dindoshingiz yoki yurtdoshingizga yordam sifatida ketadi. Takoful sug'urta bozorida sug'urta qildiruvchi shunchaki xizmat iste'molchisi emas, balki foyda ko'ruvchi sherikdir. Bu tizim mablag'larning adolatli aylanishini va jamiyatning boyishini ta'minlaydi.

An'anaviy sug'urtada xatar sug'urta kompaniyaga o'tkaziladi. Takofulda esa xatar barcha ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Agar bir ishtirokchining uyi yonsa yoki sog'lig'iga zarar yetsa, qolgan barcha ishtirokchilar o'z mablag'lari bilan unga yordam bergan hisoblanadilar. Bu tizim insonlarni bir-biriga begona emas, balki bir kema-dagi yo'lovchilar kabi birlashtiradi.

Takoful sug'urta bozori milliy miqyosda joriy etilsa, u insonlar o'rtasidagi ijtimoiy rishtalarni mustahkamlaydi, "men" emas, "biz" degan tushunchani iqtisodiy munosabatlarga olib kiradi. Takoful ishtirokchilari jamg'arma qanday sarflanayotganiga qiziqish bildirishi sug'urta firibgarligining kamayishiga (chunki boshqa ishtirokchilarning haqqiga xiyonat qilish deb tushuniladi) hamda mablag'larning faqat jamiyat uchun foydali (halol) sohalarga yo'naltirilishiga olib keladi.

Islom moliya muassasalari buxgalteriya hisobi va auditi (AAOIFI) xalqaro tashkilotining 26 sonli me'yorida (aaoifi.com, n.d.), takofulga quyidagicha ta'rif berilgan:

“Islom moliyasiga muvofiq sug’urta – Shariat qoidalariga va tamoyillariga rioya etadigan maxsus kompaniya boshqaruvi ostidagi, barcha turdagi xavf-xatarlarni qamrab olgan sug’urtaning bir shaklidir.

Islom moliyasiga muvofiq sug’urta shartnomasi o’zaro yordam va xayr-ehson asosida (jamg’arma shaklida) tuziladi, turli xatarlar tufayli vujudga kelgan zarar yoki yo’qotishlar jamg’arma a’zolari o’rtasida adolatli taqsim etiladi (ya’ni ko’rilgan talafot a’zolar tomonidan kiritilgan mablag’lar hisobidan qoplanadi)”.

Takoful “O’zaro kafolatlash”, O’zbekiston qonunchiligida ham ko’zda tutilgan amaliyot bo’lib, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag’larini birlashtirish yo’li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo’lgan ikki tomonlama sug’urtaga mos keladi. Ushbu sug’urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko’rinishida ham qo’llanib kelinmoqda.

Takaful to’g’ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug’urta jamg’armasi tuziladi. Jamg’arma a’zolari oldindan e’lon qilingan tartib-qoidaga ko’ra sug’urta uchun badallarni ehson sifatida jamg’armaga kiritishadi, jamg’arma esa o’z mulkiga aylangan ushbu mablag’lar hisobidan a’zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug’urtadan ortgan mablag’larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo’yilishi yoki a’zolar o’rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg’armaning qoldig’idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko’rsatilishi mumkin.

Takaful shartnomasi doirasida barcha tomonlar yoki polis egalari bir-biriga kafolat beradilar va sug’urta badallarini to’lash o’rniga “pull” ga yoki o’zaro fondga hissa qo’shadilar. Jamlangan sug’urta mukofotlar yig’indisi takoful fondini tashkil qiladi. Har bir ishtirokchining hissasi ular talab qiladigan sug’urta qoplamasi turiga va sharoitlariga bog’liq hisoblanadi. Takoful shartnomasida odatiy sug’urta polisi kabi xavfning xarakteri va sug’urta qoplamasi muddati ko’rsatib o’tiladi.

Takoful sug’urta bozorida takoful fondlari jamg’armasi a’zolar nomidan operator tomonidan boshqariladi va u xarajatlarni qoplash uchun kelishilgan sug’urta to’lovni oladi. An’anaviy sug’urta kompaniyasida bo’lgani kabi, xarajatlarga sotish va marketing, andarrayting va da’volarni boshqarish kiradi.

Takoful sug’urta bozorida takoful fondlari jamg’armasi a’zolar tomonidan qilingan har qanday da’volar takoful fondlar jamg’armasi hisobidan to’lanadi, kelajakdagi da’volarning ehtimoliy qiymati va boshqa zaxiralar uchun zaxiralar yaratilganidan so’ng esa qolgan har qanday ortiqcha mablag’ takoful operatoriga emas, balki fond a’zolariga tegishli hisoblanadi. Qolgan sug’urta mablag’lar fond ishtirokchilariga naqd dividendlar ko’rinishida, taqsimlash ko’rinishida yoki kelajakdagi badallarni kamaytirish yo’li bilan taqsimlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi kunda O’zbekistonning amaldagi “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi qonunida “takoful” va “islom sug’urtasi” atamasi to’g’ridan-to’g’ri mavjud emas. Biroq, 2024-2025 yillarda ishlab chiqilgan Islom moliyasi va Takafulga oid qonun loyihalarida hamda Markaziy bank va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (IPMA) tomonidan taqdim etilgan me’yoriy hujjatlar loyihalarida ushbu atama islomiy sug’urtaning huquqiy asosi sifatida keltirilgan.

Takoful sug’urta bozorida Markaziy Osiyo davlatlari ichida takoful sug’urta fondlari bo’yicha qisman mamlakatlar tomonidan qo’llab-quvvatlangan, lekin mahsulotlar va boy mijozlar tomonidan o’sib borayotgan xavf-xatarli bozordan ko’proq “ne’mat” olish uchun bo’lgan yuqori talab tufayli rivojlanmay qolib ketmoqda.

Takoful, islom sug’urta bozori adolatlilik, birdamlik va o’zaro yordam tamoyillariga asoslangan an’anaviy sug’urta mahsulotlariga noyob taklif beradi. Takoful sug’urta bozorining o’sishi, rivojlanishi axloqiy va barqaror moliyaviy yechimlarga qiziqishning ortib borayotganini bildiradi. Globallashuv va moliyaviy mahsulotlarning tobora xilma-xilligi sharoitida takoful jamoalari va undan tashqari moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim vositaga aylanishi mumkin.

Takoful sug'urta bozori nafaqat diniy ehtiyoj, balki iqtisodiy barqarorlikning yangi poydevoridir. To'liq me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilishi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Takafulning uzoq muddatli barqarorligini va uning islomiy moliyaning asosiy ustunlaridan biri sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kelajakda Takaful, nafaqat musulmon jamiyatlari uchun, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy yechimlarni izlayotgan global auditoriya uchun ham jozibador bo'lish salohiyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, Takoful sug'urta bozorida islom tamoyillariga mos keladigan sug'urta muhitini yaratish, ishtirokchilarga o'zaro qo'llab-quvvatlash va halol sha'riy-axloqiy investitsiya vositalarini taklif etadi. Bu orqali sanoat rivojlanib borgan sari, global sug'urta bozorida ham moliyaviy ehtiyojlarni, ham axloqiy jihatlarni hal qilishda muhim rol o'ynashishga shak-shubha yo'q.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Archer, Simon and Abdel Karim, Rifaat Ahmed (2017) *Takaful: Islom sug'urtasi*. Chichester: John Wiley & Sons.

Baydaulet, E.A. (2019) *Islom moliya asoslari*. Toshkent: "O'zbekiston".

Bekken, R.I. (2019) *Islom iqtisodiy modeli va zamon*. Toshkent: "O'zbekiston".

Billah, Mohd Ma'sum (2008) 'Islomiy Sug'urta (Takaful): Modellar va Ularning Turli Yurisdiksiyalardagi Qo'llanilishining Keng Qamrovli Tahlili.' *Islomiy va Yaqin Sharq Moliya va Menejmenti Xalqaro Jurnali*, vol. 1, no. 1, pp. 58-71.

Iqbal, Zamir and Mirakhor, Abbas (2011) *Islom Moliyasiga Kirish: Nazariya va Amaliyot*. Singapore: John Wiley & Sons.

Jurayev, B. (tarj.) (2019) *Islomiy moliya va bank tizimi*. Toshkent: "O'zbekiston".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2023) "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida, PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2019) "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-4412-son, 2019-yil 02-avgust.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2024) "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-108-son, 2024-yil 1-mart.

Rahman, Habibur and Ismail, Abdul Ghafar (2012) 'O'zaro yordamdan Takofulga: Islom sug'urtasining tarixiy ko'rinishi.' *Islom moliyasi jurnali*, jild. 1, son. 1, s. 1-12.

Senat (n.d.) O'z. Res. Oliy Majlisi Senatning rasmiy sayti. Available at: <https://www.senat.uz/>

Sh., Mirziyoyev (2019) 2019 yil 10 iyuldagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish. Available at: <https://sputniknews-uz.com/>

Sputnik (2020) Shavkat-Mirziyevning-Oliy-mazhlisiga-va-khala-navbatdagi-murozhaatnomasi-15695638.html. Available at: <https://sputniknews.uz/20201229/Shavkat-Mirziyevning-Oliy-mazhlisiga-va-khala-navbatdagi-murozhaatnomasi-15695638.html>

AAOIFI (n.d.) SS-26 Islamic Insurance. Available at: <https://aaoifi.com/ss-26-islamic-insurance/?lang=en>

Islommoliyasi (n.d.) Available at: www.islommoliyasi.uz